

Klyaksografiya



Qog'ozga tomizilgan bo'yoq rasmda jonlanishi mumkin.

Keling, noodatiy usulda rasm chizib ko'ramiz!



Ba'zan rasm o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Buning uchun qog'ozga bo'yoq tomizish va unga puflash kerak bo'ladi. Bo'yoq tomchisi yoyilib, qiziqarli shakl yoki naqshga aylanadi. Keyin esa uning ustidan rasm chizib, uni biror hayvon, o'simlik yoki ertak qahramoniga aylantirish mumkin.



Bugun siz **klyaksografiya** texnikasi (qog'ozga rangli bo'yoq tomizish, sachratish orqali noodatiy shakllar hosil qilishga asoslangan usul) yordamida rasm chizishni va oddiy bo'yoq tomchilarini quvnoq rasmlarga aylantirishni o'rganasiz.

Rassomlar klyaksografiya texnikasida rasm chizishni yaxshi ko'rishadi, chunki tomizilgan har bir bo'yoq tomchisi **betakror** bo'lib chiqadi. Bo'yoq tomchilari hech qachon bir xil bo'lmaydi!



Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, bo'yoqlar, mo'yqalam, flomasterlar, kokteyl ichish uchun naycha, qog'oz sochiqlar.

Rasm chizish bosqichlari:

1

Qog'ozga bo'yoq tomizing.



2

Unga puflang.



3

U nimaga o'xshaydi?



4

Qahramonni chizib tugallang.






Bir nechta **bo'yoq tomchilaridan** rasm yarating.
Masalan: **o'rmon**, **suvosti dunyosi** yoki **o'rmondagi ertaknamo yalanglik** rasmini chizish mumkin.



Sehrli kapalak



O'rmon



“Nimaga o'xshaydi?” o'yini

Bir-biringizga bo'yoq tomchisidan hosil qilgan tasviringizni ko'rsating va unga qarab: “Men ...ni ko'ryapman”, – deb ayting.

